



UDK: 1.18.111.8

Laylo TURSUNOVA,

Katta o'qituvchi, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston  
E-mail: l.e.tursunova@gmail.com, <https://ORCID.org/0000-0002-7081-550X>

Farg'ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov taqriz ostida

## TILAB MAHMUDOVNING ESTETIK QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY ESTETIK YO'NALISHLAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Tilab Mahmudovning estetik qarashlari hamda ularning zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi tahlil qilinadi. Olimning go'zallik, estetik ong, ma'naviyat va milliy qadriyatlar haqidagi ilmiy qarashlari zamonaviy estetika konsepsiyalari bilan qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqot davomida milliy estetik tafakkurning yoshlar ma'naviy kamolotidagi o'rni hamda estetik madaniyatni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Tilab Mahmudov ilmiy merosining bugungi estetik jarayonlardagi dolzarbligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tilab Mahmudov, estetika, estetik ong, estetik madaniyat, milliy tafakkur, ma'naviyat, qadriyatlar, go'zallik, zamonaviy estetika, qiyosiy tahlil.

## ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ТИЛАБА МАХМУДОВА И ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ С СОВРЕМЕННЫМИ ЭСТЕТИЧЕСКИМИ НАПРАВЛЕНИЯМИ

Аннотация

В статье анализируются эстетические взгляды Тилаба Махмудова и их взаимосвязь с современными эстетическими направлениями. Научные идеи ученого о красоте, эстетическом сознании, духовности и национальных ценностях рассматриваются в сравнительном аспекте с современными эстетическими концепциями. Раскрывается роль национального эстетического мышления в духовном развитии молодежи и формировании эстетической культуры. Обосновывается актуальность научного наследия Тилаба Махмудова в современных эстетических процессах.

**Ключевые слова:** Тилаб Махмудов, эстетика, эстетическое сознание, эстетическая культура, национальное мышление, духовность, ценности, красота, современная эстетика, сравнительный анализ.

## TILAB MAHMUDOV'S AESTHETIC VIEWS AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS WITH CONTEMPORARY AESTHETIC TRENDS

Annotation

This article analyzes Tilab Mahmudov's aesthetic views and their relationship with contemporary aesthetic trends. The scholar's ideas on beauty, aesthetic consciousness, spirituality, and national values are comparatively examined alongside modern aesthetic concepts. The study reveals the role of national aesthetic thinking in the spiritual development of youth and in the formation of aesthetic culture. It also substantiates the relevance of Tilab Mahmudov's scientific heritage in contemporary aesthetic processes.

**Keywords:** Tilab Mahmudov, aesthetics, aesthetic consciousness, aesthetic culture, national thinking, spirituality, values, beauty, contemporary aesthetics, comparative analysis.

**Kirish.** XXI asrda globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari estetik tafakkurning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda milliy estetik qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda inson ongiga turli madaniy ta'sirlarning kuchayishi natijasida estetik did, badiiy tafakkur va madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat ham o'zgarib bormoqda. Shu bois milliy estetik tafakkur taraqqiyotini ilmiy jihatdan o'rganish, uni zamonaviy estetik jarayonlar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston estetik tafakkuri taraqqiyotida faylasuf va estetik olim Tilab Mahmudovning ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Olim estetika, ma'naviyat va milliy qadriyatlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy asoslashga katta hissa qo'shgan. Uning asarlarida go'zallik, badiiy tafakkur, ma'naviy barkamollik va madaniy meros tushunchalari o'zaro aloqador holda tahlil qilinadi. Tilab Mahmudov estetik madaniyatni jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida

baholab, yosh avlod tarbiyasida san'at va milliy qadriyatlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Bugungi kunda estetik tarbiya masalalari nafaqat san'atshunoslik va falsafa, balki pedagogika, madaniyatshunoslik hamda sotsiologiya fanlarining ham dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki estetik madaniyat insonning go'zallikni anglash, baholash va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirib, uning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un shakllantirishda estetik tafakkurning o'rni beqiyosdir.

Mazkur maqolaning maqsadi Tilab Mahmudovning estetik qarashlarini zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan qiyosiy tahlil qilish hamda ularning bugungi estetik madaniyat rivojidagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Shuningdek, olimning ilmiy merosida ilgari surilgan estetik g'oyalarning zamonaviy madaniy taraqqiyot va yoshlar ma'naviy kamolotidagi o'rni aniqlash ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

**Adabiyotlar tahlili.** Estetika tarixida go'zallik va san'at masalalari qadimgi davrlardan buyon faylasuflar va mutafakkirlar diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat taraqqiyoti davomida go'zallikning mohiyati, uning inson hayotidagi o'rni va san'atning ijtimoiy vazifalari haqida turli nazariyalar shakllangan. Estetik tafakkur taraqqiyoti jamiyatning ma'naviy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir davr o'zining estetik qarashlari va mezonlarini vujudga keltirgan.

Antik davrda Pifagor go'zallikni uyg'unlik va sonlar mutanosibligi bilan bog'lagan bo'lsa, Aristotel san'atni borliqni badiiy aks ettirish shakli sifatida talqin qilgan. Pifagorning fikricha, olamdagi barcha go'zallik matematik tartib va mutanosiblikka asoslanadi. Aristotel esa san'atning inson ruhiyatiga ta'siri, uning tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini alohida e'tirof etgan. Uning "katarsis" haqidagi ta'limoti estetik tarbiya nazariyasining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Sharq mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Alisher Navoiy estetik tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ularning qarashlarida go'zallik ma'naviy komillik bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Forobiy musiqani inson ruhiyatini tarbiyalovchi va jamiyatni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi vosita sifatida baholagan. Ibn Sino esa go'zallikni insonning ruhiy va axloqiy kamoloti bilan bog'lab, estetik idrokning inson hayotidagi ahamiyatini ochib bergan. Alisher Navoiy ijodida esa go'zallik ezigulik, adolat va komillik tushunchalari bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi.

Yangi davr estetik tafakkurida Immanuel Kant, Georg Hegel va Fridrix Shiller kabi mutafakkirlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. Kant estetik hukmning subyektiv va universal xususiyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Hegel san'atni mutlaq ruhning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatida izohlaydi. Shiller esa estetik tarbiya orqali insonning ma'naviy erkinligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi.

XX-asrlarda estetika fanida postmodernizm, madaniy plyuralizm va vizual madaniyat nazariyalari shakllandi. Bu yo'nalishlar estetik qadriyatlarining nisbiyligi, madaniyatlararo muloqot va ommaviy axborot vositalarining estetik ongga ta'siri masalalarini o'rganishga qaratildi. Zamonaviy estetik tadqiqotlarda milliy madaniyat va global madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga ham muhim ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Tilab Mahmudovning ilmiy izlanishlarida estetika inson ma'naviy kamolotining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Olim estetik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning asarlarida estetik ongning rivojlanishi jamiyat ma'naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslab berilgan. Tilab Mahmudov go'zallikni nafaqat san'at hodisasi, balki insonning hayotga, mehnatga, tabiatga va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan estetik munosabati sifatida ham talqin qiladi.

Olimning qarashlariga ko'ra, milliy estetik qadriyatlar yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular estetik did va badiiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan Tilab Mahmudovning ilmiy merosi zamonaviy estetik nazariyalar bilan hamohang bo'lib, milliy madaniyatni asrash va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini yaratishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Mazkur ilmiy manbalar va nazariy qarashlar Tilab Mahmudovning estetik konsepsiyasini zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan qiyosiy o'rganish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning estetik qarashlarini global madaniy jarayonlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish esa milliy estetik tafakkurning bugungi taraqqiyot tendensiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Tilab Mahmudovning estetik qarashlarini zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi falsafiy, estetik va madaniy-tarixiy tamoyillarga asoslanib, estetik tafakkurning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida avvalo tarixiy-falsafiy metod qo'llanilib, estetik tafakkurning shakllanish va rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Ushbu metod orqali qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining estetik qarashlari, shuningdek, O'zbekiston falsafiy-estetik tafakkurining taraqqiyot yo'nalishlari tahlil qilindi. Tilab Mahmudovning ilmiy merosi milliy estetik tafakkur rivojining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanib, uning qarashlari tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tadqiq etildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida Tilab Mahmudovning estetika haqidagi nazariy qarashlari zamonaviy estetik konsepsiyalar, jumladan, madaniy plyuralizm, postmodern estetika, vizual madaniyat nazariyalari va milliy madaniyat konsepsiyalari bilan taqqoslandi. Mazkur metod olim qarashlarining zamonaviy estetik tafakkurdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini ochib berish imkonini yaratdi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv metodi ham muhim o'rin egalladi. Ushbu metod asosida estetik madaniyat, estetik ong, badiiy tafakkur, ma'naviy qadriyatlar va milliy meros tushunchalari o'zaro bog'liq yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Tilab Mahmudovning estetik qarashlari alohida g'oyalari yig'indisi sifatida emas, balki inson ma'naviy kamoloti, madaniy taraqqiyot va milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi konseptual tizim sifatida o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda aksiologik metoddan foydalanildi. Ushbu metod orqali estetik qadriyatlarining inson hayoti va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, go'zallik, ezigulik va ma'naviy barkamollik kabi tushunchalarning mazmuni tahlil qilindi. Tilab Mahmudovning milliy qadriyatlar va estetik tarbiya haqidagi qarashlari qadriyatlar nazariyasi nuqtayi nazaridan baholanib, ularning yoshlar ma'naviy kamolotidagi ahamiyati ochib berildi.

Germenevtik metod yordamida olimning ilmiy asarlari, monografiyalari va maqolalaridagi estetik g'oyalari mazmunan talqin qilindi. Matnlarning ichki mantiqi, falsafiy mazmuni va konseptual xususiyatlari tahlil qilinib, Tilab Mahmudov tomonidan ilgari surilgan estetik qarashlarning mohiyati yoritildi. Germenevtik yondashuv olim asarlaridagi estetik tushunchalarning chuqur ma'nolarini aniqlash va ularni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan bog'liq holda sharhlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari ham keng qo'llanildi. Tahlil metodi yordamida Tilab Mahmudovning estetik qarashlari alohida tarkibiy qismlarga ajratilib o'rganildi. Jumladan, estetik madaniyat, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, san'at va go'zallik haqidagi qarashlari mustaqil ravishda tahlil qilindi. Sintez metodi esa ushbu g'oyalarni yagona nazariy tizim sifatida umumlashtirish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda mantiqiylik va xolislik tamoyillari asosida ilmiy manbalar tanqidiy tahlil qilindi. Olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, ilmiy xulosalar chiqarishda obyektivlik va izchillik tamoyillariga amal qilindi. Tadqiqot materiallari sifatida Tilab Mahmudovning ilmiy asarlari, estetika va falsafaga oid monografiyalari, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar hamda zamonaviy estetik nazariyalar bo'yicha ilmiy manbalardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini milliy tafakkur, estetik ong, ma'naviy qadriyatlar va madaniy meros haqidagi

falsafiy-nazariy qarashlar tashkil etdi. Mazkur metodlar majmuasi Tilab Mahmudovning estetik merosini har tomonlama va chuqur o'rganish, uning zamonaviy estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni hamda ilmiy ahamiyatini xolis baholash imkonini berdi. Natijada olimning estetik qarashlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ifodalovchi muhim ilmiy konsepsiya sifatida tadqiq etildi.

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqot natijalari Tilab Mahmudov estetik qarashlarining zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan ko'plab umumiy jihatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Olim go'zallikni insonning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi. Zamonaviy gumanistik estetika vakillari ham estetik tajribani insonning ichki dunyosi va qadriyatlari bilan bog'laydilar.

Tilab Mahmudov estetik madaniyatni shaxs kamolotining muhim omili deb hisoblaydi. Zamonaviy estetik nazariyalarda ham san'atning tarbiyaviy va ijtimoiy funksiyalari alohida ta'kidlanadi. Ayniqsa, yoshlar ongida estetik did va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish masalasi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Olimning qarashlari postmodern estetikadan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Postmodernizmدا nisbiylik va

pluralizm ustuvor bo'lsa, Tilab Mahmudov estetik qadriyatlarining ma'naviy asoslariga ko'proq urg'u beradi. Uning nazariyasida milliy qadriyatlar va ma'naviy meros estetik taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Tilab Mahmudov estetik ongning shakllanishida musiqa, adabiyot va san'atning tarbiyaviy imkoniyatlarini alohida ta'kidlaydi. Bu jihat zamonaviy madaniyatshunoslik va estetik pedagogika yo'nalishlari bilan hamohangdir.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari Tilab Mahmudovning estetik qarashlari zamonaviy estetik yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Olimning go'zallik, estetik ong va ma'naviy qadriyatlar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Tilab Mahmudov ilmiy merosi yoshlar estetik madaniyatini rivojlantirish, milliy tafakkurni mustahkamlash va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli uning estetik qarashlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmudov T. Estetika va ma'naviyat masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Mahmudov T. Madaniyat va milliy tafakkur. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
3. Mahmudov T. Estetik tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, 2016.
5. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent, 2007.
6. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, 2011.
7. Nazarov Q. Aksiologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2015.
8. Erkayev A. Ma'naviyat falsafasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
9. Shermuhamedova N. Falsafa. – Toshkent: Noshir, 2022.
10. Immanuel Kant. Critique of Judgment.
11. Georg Wilhelm Friedrich Hegel. Lectures on Aesthetics.
12. Jean-François Lyotard. The Postmodern Condition.